

**O`ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Pedagogika-psixologiya kafedrası

**PSIXOLOGIK XIZMAT FANIDAN
fanidan**

KURS ISHI

MAVZU: O'qituvchilik mahoratining asoslari

Bajardi: *Karimov Bunyod*

Rahbar: O. Rajabov

J I Z Z A X – 2014

R E J A

KIRISH

I BOB. O'QITUVCHI-KASB EGASI SIFATIDA

1.1. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari va maxorati

1.2. O'qituvchining kasbiy maxorati

II BOB. TASHKILIY-USLUBIY ISHLAR O'QITUVCHI MAXORATINING ASOSI

2.1. O'qituvchining pedagogik va psixologik tajribalarni oshirib borishi

2.2. O'qituvchining dars jarayonini samarali tashkillashtirishi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

«Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki
aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga
o'rgatadi»

A.F.Disterveg – nemis pedagogi

KIRISH

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini ham sobit qadamlilik bilan isloh qilib bormoqda. Ayniqsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingach, bu boradagi ishlar keng ko'lamga erishdi. Ushbu hujjatlarning talablari asosida bilim va kasb-hunar egallashga bo'lgan e'tibor kuchayib ketdi. Shu tufayli ta'lim-tarbiya tizimiga yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kela boshladi.

Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jamg'armalarida muayyan ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi, albatta. Ularning katta ko'pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq o'zgarishlardir.

O'quv faoliyatining aynan bu tomonini ta'lim berish jarayoni tushunchasi bilan belgilaymiz. O'quv jarayoni deganda-o'quv faoliyati, tor ma'noda, bir maqsadga yo'naltirilgan ta'lim berish sifatida tushuniladi.

Bu o'quv faoliyatini asosiy tomoni hisoblanadi. Lekin u o'quv faoliyatining mazmunini to'laligicha yoritmaydi. O'quv faoliyati tarkibiga keng ma'noda, ta'lim berishdan tashqari, yana bir eng muhim va ma'suliyatli jarayon-tarbiya kiradi. U o'quv faoliyatining ajralmas qismi bo'la turib, o'quvchilardan bir qator zarur ijtimoiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi va tarbiya ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda dasturlar va ma'ruza matnlarini elektron disketlarga ko'chirish, ular bilan har bir talabani ta'minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta'lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta'minlash, ta'lim muassasalarini kommunikasion tarmoqlarga bog'lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi.

Mazkur kurs ishida yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal etishning ayrim jihatlari, pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning ahamiyati hamda ular bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishning metodik asoslari bayon qilingan.

I BOB. O'QITUVCHI-KASB EGASI SIFATIDA

1.1. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari va maxorati

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi.

Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq o'qituvchiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

ta'lim berish mahorati;

tarbiyalay olish mahorati;

o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlari;

ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati va h.k..

Umumlashtirilgan modelning doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni hisoblanadi. Bu birinchi navbatda, bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya (atrof-muhit), kompyuter texnikasi va ilmbardosh texnologiyalar ustuvor bo'lgan va xalk xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog'liq bo'lar ekan:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligiga;

- ta'lim muassasalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ularda fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlariqay darajada aks ettirilganligiga;

- professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirishga;

- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlashga;

- professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;

- o'quv jarayonini informatizasiyalash va kompyuterlashtirishga;

- kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llashga;

- shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va hulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarishga;

- o'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart.

Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalkimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Shunday ekan, o'qituvchilik-katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilgor tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki talabalar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatguylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi

talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o'z yurti va dunyodagi real voqeyelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermok kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'zining o'quvchi yoki talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko'p o'qishi va o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o'quv mashg'ulotlarini mukammal tashkil qilish-o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e'tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi uning o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg'ulotlarning sifati belgilaydi.

Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchi navbatda, yoshlarimiz o'z murabbiylari darsidan har jihatdan mamnun bo'lsinlar. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlarning qalbini va ruhini bir-biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z fanini va uni o'qitishning metod, usul va vositalarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi-murabbiyga xos madaniyatning

yuqoriligiga erishishi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat ifoda eta olishi, ularni hayotga qiziqtirishi va ularning ruhiy holatlarni bilishi va tushunishi, bosiqlik bilan o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi, tashqi ko'rinishi va kiyinish madaniyati bo'yicha ibrat bo'lishi, nutq madaniyatining yuqoriligi va ijtimoiy faolligi, ayniqsa, omma o'rtasida ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy-madaniy ishlarning targ'ibotchisi bo'lishi lozim.

Shundagina mamlakatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarimiz o'z murabbiylarining nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. Buning uchun har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilganidek, o'z fanlari buyicha tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak.

1.2. O'qituvchining kasbiy maxorati

"Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi-o'qituvchilik va murabbiylikdir",-deganida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov haq fikrni ifodalagan edi. G'azal mulkning sultoni, ikki daryo bo'yidagi zahmatkash xalqini yakqalam qilgan A.Navoiy ranj ila bir harf o'rgatgan ustozlar xizmatini yuz ganj ila ado etib bo'lmasligini yozgan va hayotda o'z ustozlari mavlono Lutfiyga bo'lgan ehtiromida uning amaliy isbotini namoyon etgan. Shu boisdan, azal-azaldan bu kasb juda e'zozli hisoblangan. Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o'qituvchi shaxsiga ko'p jihatdan bog'liq.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish va respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi hamda ularning kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gresiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a'zolari o'rtasida yuksak xurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi va mazmuni nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikri ibratlidir: "-Tarbiyachining o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. ...O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab

qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi lozim?

O'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma'lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

"Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir", -degan shior kun tartibiga o'rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo'lib qoldi. Boisi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini mazkur darslik epigrafidagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizasiyalash) muammosi kun tartibiga qo'yilgan bugungi kunda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o'ringa chiqdi.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya'ni sahovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalardir.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, hunar sirlarini sodda usulda o'rta qo'lga olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilardir.

Shogirdlik odobi bo'yicha quyidagicha mezonlar qayd qilinadi: "Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin". 1) avvalo: o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevis; 2) o'z ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; 3) ustoz oldida xokisor bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; 4) ko'rish (nojoiz) lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; 5) eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; 6) barcha noloziy ishlardan qo'l tortish; 7) ustoziga qarshi bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

Ana shu kesimlarda o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasidagi dialektik munosabat to'laqonli amalga oshiriladi.

O'qituvchidan birinchi navbatda quyidagilar talab qilinadi:

1. Jismoniy va aqliy salomatlik.
2. Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.
3. Kuchli va keng qamrovli poyindor bilim.
4. Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.
5. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi.
6. Muttasil o'z ustida ishlash va malakasini oshirish va boshqalar.

Odatda, ko'pchilik o'qituvchilar shaxsni o'rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o'z o'quv fani doirasida o'quvchini tegishli bilim va ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko'radilar. Vaholanki, o'qituvchining mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi-ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir. Biroq oliy pedagogika o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar o'qituvchining amalga oshiradigan amaliy-pedagogik faoliyati bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Bu fikrni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchi, bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutib o'quv rejasiga kiritilgan mashg'ulotlar aksariyatining mazmuni aynan o'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vaziyat o'qituvchining malakali mutaxassis sifatida shakllantirilishida ijobiy ta'sirga ega bo'lsada, uning kasbiy-pedagogik faoliyatida bevosita qo'llay oladigan ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodlarini egallashiga xizmat qilmaydi;

Ikkinchi, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodkorlik tushunchasi ma'lum bir cheklangan ma'noda, odatda texnik ijodkorlikni amalga oshirish va boshqarishga tayyorlash ma'nosida talqin qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarish jarayonida shakllantiriladigan shaxsda esa nafaqat texnik yoki badiiy ijodkorlik bilan bog'liq, balki yanada chuqurroq bilimlarni talab qiluvchi tadqiqotchilik ijodkorligini shakllantirish lozim bo'ladi.

II BOB. TASHKILIY-USLUBIY ISHLAR O'QITUVCHI MAXORATINING ASOSI

2.1. O'qituvchining pedagogik va psixologik tajribalarni oshirib borishi

Uzluksiz ta'lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta'lim muassasasi va unda xizmat qiluvchi pedagog-kadrlar zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli, el-yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila

oldida o'z burchi va javobgarlini his eta oladigan, raqobatbardosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish bilan uzviy ravishda bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, eng avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizasiyalashni talab qiladi. Bunday munosabatlarni tashkil etmasdan turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizasiyalash asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, unda hamkorlik, g'amxo'rlik, bilim oluvchi shaxsini hurmat qilish kabilardan iborat o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Pedagogning o'quvchi yoki talabning shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevishtirish, ularning taqdiri uchun qayg'urish, shaxsga bo'lgan yuksak ishonch, o'zaro hamkorlik, mukammal muloqot madaniyati, ixtiyoriylik va erkinlik, rag'batlantirish va kamchiliklarga chidamlilik hisobiga amalga oshadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning faolligi va teng huquqliligi talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizasiyalash – bilim beruvchi va bilim oluvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarda tanlash va o'z fikri hamda nuqtai nazarini erkin bayon etish sharoitining yaratilishiga olib keladi. Bu O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni –Konstitusiyasi bilan kafolatlangan me'yorlarga ham muvofiq keladi.

Yangi munosabatlarning o'zida xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchilarning mustaqilligi va ijodiy o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan ularni belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, qiziqitirish, ehtiyojlarni hisobga olish va erkin hamda faol mehnatga undash tufayli amalga oshirilishi bilan xarakterlidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos vositalari zarur bo'ladi. Ular xilma-xildir. Verbal (nutq so'zlash, ma'ruza, suhbatlashish, savol-javoblar, bahs-munozara, muzokara, axborot va ma'lumot berish, kengashish, maslahatlashish, nasihat yoki tanbeh berish kabilar), noverbal (imo-ishora, qo'l va gavda harakatlari yordamida ma'lum ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlash), vizual (ko'rgazmalilik elementlari-plakatlar, jadvallar, suratlar, diagrammalar, sxemalar, yozuv va tasvirlar, fotosuratlar, tarqatma materiallar, video lavhalar, jonli va jonsiz obyektlar, turli buyumlar va boshqalar), audio (magnit yozuvlari, lingofon va radio vositalari, musiqa va nutqiy asarlar kabilar), tabiiy (odam, hayvon, o'simlik, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, inshootlar kabilar), o'quv anjomlari (kitob, atlas, xarita, reaktivlar va boshqalar)

kabi vositalar farq qilinadi va ular yakka yoki omixta tarzda keng miqyosda qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish mexanizmini taniqli pedagoglar-J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonov quyidagicha bayon qilishgan:

1. Pedagogik jamoani yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish-ma'ruza. Adabiyotlar tavsiya etish.
2. Yangi texnologiya asosida ishlashni xohlovchi pedagoglar jamoasini aniqlash. Ular orqali o'qituvchilarga pedagogik texnologiyani qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish.
3. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish:
 - seminar;
 - trening;
 - individual maslahat berish;
 - ko'rgazmali darslar tashkil etish.
4. Yangi texnologiya asosida ishlovchilarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish. Ularning hisobotlarini eshitib borish.
5. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o'qituvchilarning metodika kengashida, pedagogika kengashlarida chiqishlarini tashkil etish.
6. Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ishlash uchun zarur didaktik materillar, vositalar xonasini tashkil qilish.
7. Yangi texnologiya bo'yicha ishlashning afzalliklarini, o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab quvvatlanishini oshkor etib borish.
8. Ilg'or, innovator pedagoglardan innavator pedagogik jamoani shakllantirish.
9. Yangilanishning uzluksizligi, davomiyligini ta'minlash.

Har bir ta'lim muassasasi o'z pedagogik jamoasining umumpedagogik tayyorligi, istak va xohishlariga muvofiq pedagogik texnologiyani joriy etish strategiyasi va taktikasini o'ziga moslab rejalashtirishi mumkin.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun o'qituvchilar bilan quyidagi tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi:

- yakka tartibda (individual) ishlash (ta'lim muassasasida, kutubxonada, uyda, ma'rifiy tadbirlarda);
- juft bo'lib ishlash (o'quv yurtida);
- kichik guruhlarda ishlash (ta'lim-tarbiya muassasalarida, hududiy tashkilotlarda);
- katta guruhlarda ishlash (mintaqaviy ko'lamda).

Tajriba almashish, ilg'or pedagogik faoliyatni ommalashtirish, anjumanlarda qatnashish, interfaol mashg'ulotlar tashkil etish va shular kabi ko'rgina tadbirlar ham amalda tez-tez qo'llaniladi.

Bularda quyidagi tartib-qoida va yo'riqlarga rioya qilinishi lozim:

- vaqt rejimiga bo'ysunish;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- o'zgalar fikri bilan hisoblashish;
- boshqalarning tajribasi va mulohazalariga hurmat bildirish, hamkorlik va hamjihatlik;
- keng fe'llilik va tanqid qilmaslik, tanbeh bermaslik;
- mulohazalilik;
- fikrni lo'nda bayon etish va boshqalarning fikriga diqqat bildirish;
- erkin munozara vaziyatiga bo'ysunish;
- o'zaro munosabatda samimiylik hamda xolislik va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ayrim pedagogik va psixologik tajribalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

O'zlashtirish-shaxsning individual xususiyatiga bog'liq bo'lganligi uchun o'quv jarayonini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tashkil etish, diqqatni to'plash, xotirani mashq qildirish, xarakterni tarbiyalash, axborot olishning yakka tartibli usulini keng qo'llash zarur.

Shaxsning individual va psixologik diagnostikasi ma'lumotlarini amaliyotda hisobga olish va o'quv faoliyatini takomillashtirishning intensiv usullaridan keng foydalanish, bilim oluvchilarning o'zlashtirish jarayonini tekshirish va nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga bo'ysunish ijobiy natija beradi. Ta'lim berish va tarbiyalash jarayonida shaxsning biologik, fiziologik, genetik, sosial (ijtimoiy) jihatlarini o'rganib pedagogik tadbirlarni tashkil etish va o'qitish mexanizmini ishga tushirish, avvalo, samara, so'ngra sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Mashg'ulotlar turlarining an'anaviy ko'rinishlari bilan bir qatorda noan'anaviy tashkiliy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish ta'lim oluvchilarning sezilarli darajadagi rivojlanishiga olib boradi. Bunday o'zgarishlar miqdor va sifat kesimlarida, vaqt birligi davomida salmoqli natija beradi. Mashq qilish tufayli ko'rish va eshitish sezgilari evaziga bo'ladigan o'zlashtirish natijalarini oshirish pedagogik tajribada isbotlangan.

2.2. O'qituvchining dars jarayonini samarali tashkillashtirishi

O'qitishning asosiy tashkiliy shakli-dars va uning uzviy hamda mazmuniy davomi bo'lgan darsdan tashqari ishlar xilma-xil variantlarda amalga oshirilganda ta'limning sifat va samaradorligi proporsional ravishda ko'tariladi. Bunda motivasiyaning ahamiyati katta. Motivasiya-shaxsni o'qishga, ko'nikma va

malaka egallashga hamda ijtimoiy-foydali mehnatga yo'naltiruvchi (undovchi) turli sabablarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq, pedagogik-psixologik tashhis xizmatining keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi sodir bo'ldi. Salbiy va ijobiy motivlar, kamchilik va yutuqlar, maqto'v va e'tiroz, tanbeh va rag'bat nisbatlarining shaxs o'lchamida nomuvofiq baholanishi yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Shuning uchun,

- inson farzandi asosiy tarbiyani oilada olishini;

- dastlabki ta'lim va tarbiya elementlari bolaning murg'akligida shakllanishini;

- maktabgacha ta'lim turida berilajak ma'lumotlar va tarbiyaviy fikrlar faqat oilaning shu boradagi fondiga yordamchi ekanligini;

- individual yoki tabaqalashtirilgan ta'lim ommaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq ekanligini;

- o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi eng yaqin va samimiy ta'sir funksiyasi kelgusi yutuqlarning garovi bo'lishini;

- ta'lim va tarbiyadagi muvaffaqiyatlarning ichki (shaxsiy) va tashqi (atrof-muhit) omillarga bog'liqligini;

- bolalik, o'smirlilik, o'rta va katta yoshlik hamda keksalik davrlaridagi aqliy faoliyat bir-biridan jiddiy farq qilishini;

- balog'at fazasida inson organizmining fiziologik nuqtai nazardan keskin o'zgarishlarga uchrashi va buning oqibatida ta'lim va tarbiya omillariga bo'lgan munosabatning ijobiy yoki salbiy taraflarga o'zgarishi mumkinligini;

- ta'limdagi muvaffaqiyatlar shaxsning o'z muammolari, aqliy va jismoniy salomatligi, oilaviy ahvoli, jamoatchilik omillari, moddiy ta'minoti, qiziqishi va o'qishga tayyorgarligi, qobiliyati, hayotda orttirgan belgilari, o'qituvchilarning kasbiy mahorati, motiv va hissiy tuyg'ulari kabi ko'pgina holatlarga bog'liqligini pedagogik faoliyatda diqqat markazida tutgan holda ishlash, o'qitish va tarbiyalash lozim.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, obyektiv jihati doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin, ayniqsa, ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli.

Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Odamning shaxs sifatidagi eng asosiy belgisi-uning ijtimoiyligidir. Ong va psixik jarayonlar insonning olamni va o'z-o'zini anglashiga xizmat qiladi. Bunda birinchi va ikkinchi signal tizimlari uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Muloqot va fikrni og'zaki yoki yozma ifodalash va masofaga uzatish inson individining eng katta yutug'idir. Individ ijtimoiy mavjudot darajasiga ko'tarilganda shaxsiy sifatlar mukammallashadi.

Shaxsning eng xarakterli jihati – uning individualligidir. Individuallik shaxs psixologik xususiyatlarining qaytarilmaydigan (betakror) birikmasi bilan ifodalanadi. Shaxsga ta'sir qilayotgan barcha omillar uning umri davomida moddiy va ma'naviy dunyoni hamda o'zligini anglashiga, ularga javob reaksiyasini namoyon qilishiga va axborotlarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchanlik xususiyatlari shaxs xislatlarining bir butunligini va o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni uning dinamik strukturasi(tuzilmasi)ni hosil qiladi.

Shaxsning harakatlantiruvchi kuchlarini va uning psixologik tuzilishini hamda faollik manbalarini 3 asosiy omil bilan bog'lab o'rganiladi:

1. Tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit.
2. Shaxsga umri davomida tizimli tarzda va uzluksiz maromda beriladigan ta'lim-tarbiya.
3. Odamga tug'ma ravishda beriladigan nasliy xususiyatlar.

Psixologlar ta'lim-tarbiya jarayonlarining obyektlari va subyektlari hisoblanadigan shaxs xaritasining bir qator elementlarini e'tirof etadilar.

Psixologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vokal, artistlik, badiiy, texnik, matematik, adabiy, ilmiy, pedagogik, tashkilotchilik, axloqiy, huquqiy jihatlarni, xarakterning umumiy xislatlari sifatida esa insonparvarlik, vatanparvarlik qat'iylik, soflik, g'ayratlilik, faollik, uyushqoqlik, jamoatchilik, optimizm, ko'ngilchanlik kabi individual xususiyatlarni qayd etishgan.

Psixik jarayonlar bilan bog'liq individual xususiyatlar ta'lim jarayonida va tarbiyalanishning turli bosqichlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bular – emosional muvozanatlilik, diqqat-e'tiborlilik, xotiraviy mustahkamlik kuchli emosiyalar, tanqidiy tafakkur, farosatlilik, ijodiy xayol, irodalilik, maqsadga intiluvchanlik, matonatlilik, qat'iyatlilik, intizomlilik kabi sifatlar bilan bog'liq ijobiy yoki salbiy jihatlardir.

Insondagi bilimlarning hosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

Ko'rish a'zosi orqali-80-85 %

Eshitish a'zosi orqali-9-13 %

Hid bilish a'zosi orqali-2,5-3,5 %

Teri sezgisi orqali-1,5-3 %

Ta'm bilish a'zosi orqali- 1-2 %

Jami – 100 % gacha.

Turli sezgi organlari ishtirokida o'zlashtirilgan va qayta ishlangan axborotning oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlari eslab qolinadi:

O'qilganlar -10 %

Eshitilganlar – 20 %

Ko'rilganlar – 30 %

Ko'rilgan va eshitilganlar – 50 %

Gapirilganlar – 80 %

Gapirilgan va amalda bajarilganlar – 90 %.

Eslab qolish va o'zlashtirish bilan bog'liq unutish, xotiraga joylash, qismlarga ajratib yodlash, mexanik yoki anglab yodlash, xotira mashqi suggestopediya (bir shaxsning boshqasiga psixik ta'sir ko'rsatishi), suggestiya (lotincha-ishontirish), gipnopediya (uyquda o'qitish) kabi ko'pgina ta'lim beruvchi va tarbiyalovchi operasiyalar ham pedagogik tizimga tez kirib kelmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'lgan ta'lim mazmunini davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar asosida yetkazishga xizmat qiladi. Har qanday texnologiya ta'lim maqsadiga mos sabab bilan yaratiladi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq ko'pgina tashkiliy-uslubiy muammolar ham borki, bugungi kunda ularni, albatta, e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bular-o'qituvchining kasbiy salohiyati va metodik mahorati, poyindor bilimi, o'quv-metodik ta'minlanganligi, malakasini oshirishi va jahon pedagogik tajribasidan xabardorligi, fuqarolik mas'uliyati, axborot olamining benihoya kengayib borayotganligi, ta'lim muassasalarining moddiy va ma'rifiy imkoniyatlari, bilim va kasb-hunar egallovchilar kontingentning dunyoqarash ko'rsatkichlari bilan bog'liq masalalardir. Eng muhimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish shiori ostidava innovasion texnologiyalarni joriy etish bahonasida tarix va ijtimoiy hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tib va yashab kelayotgan an'anaviy o'qitish metodikasi, metod va usullaridan voz kechib yubormaslikdir.

Biroq o'qitish jarayoni dinamik va barhayot jabha bo'lganligi tufayli ham unga yangilik kirishi va yangilanish amaliyotining davom etishi tabiiydir. Shuning uchun ham, sinalgan va samara beradigan pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriy holdir.

XULOSA

Ma'rifatli va madaniyatli dunyoning ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo'lgan muhit hamda unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'ladi. Zero, shaxs mansub bo'lgan muhitda uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar mavjud. Shaxs faoliyat olib borayotgan muhit doirasida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining ham alohida o'rni bor. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar mamlakat iqtisodiyotini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon beradi. Mazkur masalaning dolzarbligini ta'kidlab, Prezidentimiz I.A.Karimov "-O'zbekiston innovasion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega", degan edi. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimizning jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy xalqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. O'quvchi va talaba yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta'lim mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta'lim uzluksizligini ta'minlab berish uchun yangidan-yangi qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo'yicha o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida bilim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O'quv-tarbiya jaryonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Bunda barcha turdagi mashg'ulotlar va mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o'rgatadi. Mashhur ingliz adibi J.Bernard Shou topib aytganidek, "-Bilinga eltuvchi yagona yo'l, bu-faoliyatdir." Ana shunday faoliyatning o'quvchi va o'qituvchi mehnati ko'rinishidagi turlari omixtalashganida kutilganidan ziyodaroq natijaga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-Toshkent: TDPU, 2003.
7. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2006, № 6. -25-28 b.
8. Jumayev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari./ “Xalq ta'limi” jurnali, 2006, № 6. -17-20 b.
9. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivnyye texnologii obucheniya. – M.: Izd-vo Instituta professionalnogo obrazovaniya Ministerstva obrazovaniya Rossii, 1995.
10. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2001, № 3. -69-71 b.
11. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod red.V.A.Slastenina. -M.: Akademiya, 2004.
12. Rasulov R., Husanov N., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.
13. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
14. Qudratov R. O'quv faoliyati-ijtimoiy hodisa. / “Xalq ta'limi” jurnali, 2002, № 4. -58-61 b.
15. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2006.